

ONA TILI DARSLARIDA FONETIKANI ALGORITMIK MASHQLAR ASOSIDA O’QITISH METODIKASI

Ne'matjonova Dildora

*Namangan davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti magistranti
nematjonovadildora11@gmail.com | +998 88 767 22 29*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21157071>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta'limida an'anaviy darslardan ancha samaraliroq va o'quvchilarning bilim salohiyatini rivojlantiruvchi til bo'limlarini mexanik qoida yodlatishdan, izchil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, hamda fonetik qoidalarni osonlik bilan qo'llashda yordam beruvchi algoritmik mashqlardan foydalanish metodikasi tahlil qilinadi. Algoritmik yondashuv o'quvchilarda tovush tahlili, imlo qoidalari va fonetik hodisalarni tizimli tushunishni ta'minlaydi. Maqolada mantiqiy tahlil, IF-THEN modeli, filtrlash algoritmi va debugging mashqlariga asoslangan topshiriq namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: fonetika, algoritmik mashqlar, ona tili ta'limi, mantiqiy tahlil, tovush tahlili, imlo algoritmi, IF-THEN modeli.

Аннотация. В данной статье рассматривается методика использования алгоритмических упражнений в обучении родному языку, которые значительно эффективнее традиционных уроков и помогают развивать познавательный потенциал учащихся — отходя от механического заучивания разделов языка, формируя навыки критического мышления и облегчая применение фонетических правил. Алгоритмический подход обеспечивает систематическое понимание учащимися звукового анализа, правил правописания и фонетических явлений. В статье приведены примеры заданий, основанных на логическом анализе, модели IF-THEN, алгоритме фильтрации и упражнениях по отладке (debugging).

Ключевые слова: фонетика, алгоритмические упражнения, обучение родному языку, логический анализ, звуковой анализ, алгоритм правописания, модель IF-THEN.

Abstract. This article examines the methodology of using algorithmic exercises in native language education — exercises that are considerably more effective than traditional lessons and help develop students' cognitive potential by moving away from the mechanical memorization of language sections, fostering critical thinking skills, and facilitating the application of phonetic rules. The algorithmic approach ensures students' systematic understanding of sound analysis, spelling rules, and phonetic phenomena. The article presents sample tasks based on logical analysis, the IF-THEN model, filtering algorithms, and debugging exercises.

Keywords: phonetics, algorithmic exercises, native language education, logical analysis, sound analysis, spelling algorithm, IF-THEN model.

Kirish. Bugungi tez fursatda rivojlanyotgan ta’lim tizimida o’zbek tili darslarini o’qitishda yangilanish va rivojlanish jarayoni davom etmoqda. Jumladan, fonetika bo’limi — o’zbek tilining tovush tizimi, unlilar undoshlar, bo’g’in va urg’u masalalari — ko’plab o’quvchilar mustaqil qo’llay olmaydigan tushunib tushunmagan holda qoidalarini yodlagan jarayon sifatida qolmoqda. Shu sababli, fonetika bo’limini mexanik yodlatishdan ko’ra turli sxema, jadval va vizual tasvirlar orqali o’rgatilsa o’quvchilar ongida uzoq vaqtli saqlanib qolib mustaqil qo’llash ko’nikmalari ham shakllanishida tirkak bo’ladi.

Algoritmik yondashuv — ya’ni muammoni bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda hal etish usuli — nafaqat matematika va dasturlash, balki tilshunoslik ta’limida ham samarali qo’llanilishi mumkin. Ushbu tadqiqot ona tili darslarida fonetika mavzularini algoritmik mashqlar asosida o’qitishning nazariy asoslarini va amaliy usullarini taqdim etadi.

2. TADQIQOTNING NAZARIY ASOSLARI

2.1. Algoritmik fikrlash va tilshunoslik ta’limi

Algoritmik fikrlash (computational thinking) — bu muammoni tarkibiy qismlarga ajratish, qoidalar ketma-ketligini aniqlash va natijalarga erishish qobiliyatidir. UNESCO va bir qator xalqaro ta’lim tashkilotlari bu ko’nikmani 21-asr o’quvchilari uchun zarur asosiy malaka sifatida e’tirof etgan.

O’zbek tili ta’limida algoritmik yondashuv quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi: tovushlarni tasnifiy mezonlar asosida guruhlashtirish; imlo qoidalarini shartli mantiq (IF-THEN-ELSE) orqali qo’llash; fonetik o’zgarishlarni bosqichma-bosqich tushuntirish; o’quvchilarning mustaqil tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantirish.

2.2. Fonetika ta’limidagi muammolar

Mavjud o’quv dasturlarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, fonetika darslarining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, qoidalar faqat ta’rif shaklida beriladi, lekin qanday qo’llash ko’rsatilmaydi; ikkinchidan, o’quvchilar tovush tahlilini mexanik bajaradilar, mohiyatini tushunmaydilar; uchinchidan, imlo qoidalari bilan fonetik hodisalar o’rtasidagi bog’liqlik tushuntirilmaydi.

3. ALGORITMIK MASHQLARNING TURLARI VA METODIKASI

3.1. Mantiqiy tahlil mashqi (Matnni dekodlash)

Bu turdagi mashqda o’quvchilar berilgan so’zdagi har bir tovushni algoritm bo’yicha tekshirib, jadvalni to’ldiradilar. Har bir tovush uchun uch mezon baholanadi: to’siq bormiligi, paycha titramasi va lab ishtiroki. Natijada tovush turi aniqlanadi.

1-jadval. "Ona tili" so’zidagi tovushlar tahlili qilish algoritmi

Tovush	To’siq bormi? (1/0)	Paycha titradimi? (1/0)	Lab ishtirok etdi? (1/0)	Tovush turi (Natija)
O	0	0	0	Lablanmagan unli
N	1	1	0	Jarangli undosh

Tovush	To'siq bormi? (1/0)	Paycha titradimi? (1/0)	Lab ishtirok etdi? (1/0)	Tovush turi (Natija)
A	0	1	0	unli Lablanmagan
T	1	0	0	undosh Jarangsiz
I	0	1	0	unli Lablanmagan
L	1	1	0	undosh Jarangli

3.2. IF-THEN modeli: So'z oxirida K-G va Q-G' almashishi

O'zbek tili imlosidagi eng avtomatlashgan jarayonlardan biri bo'lgan so'z oxirida yoki o'rtasida tovush almashishi. Masalan: K/Q harflarining G/G'ga almashishi hodisasini o'quvchilar ko'pincha xato qo'llaydilar. Bu qoidani algoritmik IF-THEN modeli orqali ifodalash o'zlashtirish jarayonini sezilarli osonlashtiradi.

AGAR (IF): so'z oxiri K yoki Q harfi bilan tugasa,

VA (AND): unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilsa,

U HOLDA (THEN): $K \rightarrow G$ ga, $Q \rightarrow G'$ ga aylanadi. (Masalan: *tilak + i = tilagi*)

AKS HOLDA (ELSE): o'zgarishsiz qoladi. (Masalan: *tayoq + da = tayoqda*)

3.3. Filtrlash modeli: Tovush tushishi

O'zbek tilida ba'zi ikki bo'g'inli so'zlarga unli qo'shilganda, so'z o'rtasidagi unli 'siqilib' tushib qoladi. Bu hodisani ketma-ketlikdan iborat 3 bosqichli filtr orqali tushuntirish o'quvchilar uchun vizual va mantiqiy jihatdan qulay:

1-filtr: So'z ikki bo'g'inlimi? $\rightarrow$ Ha bo'lsa davom et

2-filtr: Ikkinchi bo'g'in unlimi? $\rightarrow$ Ha bo'lsa davom et

3-filtr: Unli bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilayaptimi? $\rightarrow$ Ha $\rightarrow$ O'rta unli tushadi

Misol: bo'yin + i = bo'yni (bo'yin $\rightarrow$ bo'yn+i); burun + i = burni; og'iz + i = og'zi.

3.4. Debugging mashqi: Xato topish

Bu mashq turida o'quvchilarga ataylab xatolar kiritilgan matn taqdim etiladi. O'quvchilar kompyuter tahlilchisi (tester) sifatida xatolarni aniqlab, algoritm asosida to'g'irlaydilar. Bu yondashuv tanqidiy fikrlash va fonetik qoidalarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi.

5. METODOLOGIK TAVSIYALAR

Algoritmik mashqlarni ona tili darslariga samarali joriy etish uchun quyidagi metodologik tavsiyalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1. Bosqichlilik tamoyili: dastlab oddiy, keyinroq murakkab algoritmlarga o'tish.

2. Vizuallashtirish: blok-sxemalar va jadvallardan keng foydalanish.
3. Guruhli ishlash: debugging mashqlarini juft yoki guruh bo'lib bajarish.
4. Teskari aloqa: o'quvchilar o'z algoritmlarini sinfdoshlariga tushuntirsin.
5. Integratsiya: algoritmik mashqlarni imlo, uslubiyat va adabiyot darslari bilan bog'lash.

6. XULOSA

Ushbu tadqiqot ona tili darslarida fonetika bo'limini o'qitishda algoritmik mashqlarning yuqori samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Algoritmik yondashuv o'quvchilarni mexanik yodlashdan mantiqiy tahlilga, passiv bilim qabul qilishdan faol bilim qurishga yo'naltiradi.

Mantiqiy tahlil, IF-THEN modeli, filtrlash va debugging mashqlari o'quvchilarda fonetik kompetensiyani, mustaqil fikrlashni va ilmiy yondashuvni bir vaqtda shakllantiradi. Bu metodika zamonaviy ta'lim standartlari, xususan, o'quvchi markazli ta'lim (student-centered learning) tamoyiliga to'liq mos keladi.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu metodikani boshqa til bo'limlari (morfologiya, sintaksis) va boshqa o'quv predmetlariga tatbiq etish hamda raqamli platforma asosida interaktiv algoritmik mashqlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.¹ Dale, E. (1946). Audio-Visual Methods in Teaching. New York: Dryden Press.
2. Wing, J. M. (2006). Computational thinking. Communications of the ACM, 49(3), 33–35.
3. Xoliqova, R. (2018). Fonetika o'qitishda innovatsion metodlar. Til va adabiyot ta'limi, 4, 12–15.
4. To'xliyev B, Ziyodova M (2018) o'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.